




Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>

21-OKTYABR - DAVLAT TILI HAQIDAGI QONUN QABUL QILINGAN KUN



*Til — shuncha sharafi
bilan nutqning
qurolidir. Agar nutq
noma'qul bo'lib chiqsa
— tilning ofatidir.*

Alisher Navoiy





ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
 НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
 SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Til va adabiyot.uz

Bosh muharrir

Nargiza BERDIYEVA

Tahrir hay'ati:

Nizomiddin Mahmudov
 Yorqinjon Odilov
 Jabbor Eshonqulov
 Baxtiyor Daniyarov
 Abdurahim Nosirov
 To'liq Saydaliyev
 Barno Buranova
 Zulxumor Mirzayeva
 Qozoqboy Yo'ldoshev
 Bahodir Jovliyev
 Salima Jumayeva
 Qayum Baymirov
 Manzar Abdulxayrov
 Alijon Safarov
 Husniddin Norqulov
 Odiljon Boynazarov
 Madina Nuriddinova
 Latifa Xudayqulova
 Barno Kadirova
 Nargiza Mirzayeva
 Guli Shukurova
 To'maris Butunbayeva
 Okila Turakulova
 Yuldosh Raxmatov
 Ramziddin Abdusatorov
 Feruza Manukyan
 Gulchexra Keldiyorova

Axborot hamkorimiz:



Muharrirlar:

Bibimaryam RAHMONOVA
 Shabnam G'ANIYEVA

Sahifalovchi:

Mahliyo ABDUQODIROVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
 Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
 Telefon: (98) 121-74-16,
 (71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
 (71) 233-03-67.
 e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com

M U N D A R I J A

Dolzarb mavzu

Akram Hamdamov. Xalq tilining
 jozibas.....3
Surayyo Ziyotova. Alisher Navoiyning
 "Hayrat ul-abror" dostonida turkiy
 somatizmlarning qo'llanishi.....5

Tilshunoslik

Maxfuza Karaxodjayeva. Alisher Navoiy
 lingvistik merosining mazmun va
 mohiyati.....8
Yulduz Eshmatova. Istiqloq davri
 o'zbek qissachiligida ayollar ruhiyatini
 ifodalashdagi yordamchi badiiy
 vositalar.....10
Nafisa Sadinova. O'zbek tili rasmiy
 uslubida qoliplashgan jumalarning
 qo'llanishi.....13
**Shokirjon Aripov, Habibulloh
 Olimjonov.** Arab tilshunosligida
 nutq tovushlarining hosil bo'lish
 mexanizmlari.....15

Adabiyotshunoslik

Hoshimjon Ahmedov. O'zbek
 adabiyotida sajli nasriy she'rlar.....19
Nilufar Sultonova. Adabiy asarda syujet
 dinamikasi va ta'sir nuqtalari.....21

Tadqiqot

Nafosat O'roqova. O'zbek mumtoz
 shoirlari ijodida floristik obrazlarning
 badiiy-estetik vazifalari.....24
Zakir Bazarov. Badiiy tarjimada leksik
 va stilistik bo'yoqdorlik muammolari..28
Dildora Bazarova. Variantlilik
 haqida.....31
Агата Осипова. К вопросу о
 необходимости изучения устного
 народного творчества на начальном
 этапе подготовки бакалавра-
 филолога.....33
Hulkar Aliqulova, Nigora Raxmatova.
 Marosim folklori bilan bog'liq o'ziga xos
 tamoyillar.....36
Sobir Mansurov. "Gulshani Dilafgor"
 to'plamidagi lirik she'rlar tasnifi.....39
Salima Karimova, Elinura Zokirova.
 O'quv jarayonini samarali tashkil
 etish metodologiyalari va ularning
 innovatsion texnologiyalar bilan
 integratsiyalashuvi: zamonaviy
 yondashuvlar va istiqbollor.....41
Farxad Babadjanov. Hujjat
 matnlarining lingvistik ekspertizasi.....43
Shahzoda A'zamova. Tohir Malikning
 "Alvido bolalik" asarida terminlarning
 lingvokulturologiyasi.....47
Aziza Erkinova. Fors-tojik, o'zbek, ingliz
 adabiyoti she'riyatida "Noma (maktub)"
 janrining shakllanishi.....49
Aziza Yusupova. Jahon tilshunosligida
 konnotatsiya masalalarining
 antropotsentrik paradigma asosidagi
 tadqiqi.....51
Yorqin Djo'rayev. Badiiy asarlarning
 falsafiy-psixologik tahlili vositasida
 o'quvchilarning o'quv-biluv motivatsiyasini
 shakllantirish metodikasi.....54
Shozod Normurodov. Imom Moturidiy
 va u mansub bo'lgan tarixiy-ilmii muhit
 tasviri.....60
Shahzoda Nurillayeva. O'zbek tilida
 odob-axloqni ifodalovchi birliklarning
 lingvomadaniy talqini.....63
Ro'zixon Mavlonova. Ko'ngil ovi azmi
 qarori yoxud Jon nisor ul sayyod
 uchunkim.....65
Umidaxon Turakulova. Badiiy matnda
 o'xshatishlarning o'rni.....68
Асаль Эргашева. О сущности
 функционального подхода к
 изучению лексико- грамматических
 явлений русского языка.....71
**Наргиза Ходжаева, Виктория
 Гимадетдинова.** Функционирование
 и трансформация фразеологизмов в
 русском языке XXI века.....73
Улугбек Баисов. Изучение



Таким образом, усвоение и понимание фольклорного явления в целом способствует формированию у будущих филологов глубокого культурологического подхода при изучении русского языка и литературы, приобщая студентов к русским культурным ценностям, пробуждая интерес к народным истокам, духовному наследию, что в последствии формирует научное внимание к проблеме трансформации основ народной эстетики в словесном искусстве, а также факторам эволюционного процесса художественной литературы.

Hulkar ALIQULOVA,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
ToshDO'TAU katta o'qituvchisi;
Nigora RAXMATOVA,
Toshkent tibbiyot akademiyasi
O'zbek va xorijiy tillar kafedrasasi o'qituvchisi

MAROSIM FOLKLORI BILAN BOG'LIQ O'ZIGA XOS TAMOYILLAR

Annotatsiya: maqolada nikoh to'yida ijro etiladigan "yor-yor" qo'shiqlarining mavzu doirasi, kompozitsiyasi, shakl va g'oyaning birligi, vazn xususiyati, misralardagi parallelizmlarning o'ziga xosligi, to'rtliklardagi mazmunning davomiyligi, lokal xoslanishi, xalqona ifoda bilan uzviyligi, ritmi va ohangdorligining ijro jarayonidagi ta'sirchanligi tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: *parallelizm, kinoya, she'riy ritm, lokal, ohangdorlik, badiiylilik, qofiya, sheva so'zlar, janr, kompozitsiya, to'rtlik.*

Annotation: in the article, the theme, composition, unity of form and idea, characteristic of weight, uniqueness of parallelisms in verses, continuity of content in quatrains, local specificity, unity with folk expression of "yor-yor" songs performed at weddings are presented in the article. , the effectiveness of rhythm and melody in the performance process is analyzed.

Key words: *parallelism, irony, poetic rhythm, locale, melody, artistry, rhyme, slang words, genre, composition, quatrain.*

Аннотация: в статье представлены тема, композиция, единство формы и идеи, характеристика веса, своеобразие параллелизмов в стихах, непрерывность содержания в четверостишиях, местная специфика, единство с народным выражением песен «ёр-ёр», исполняемых на свадьбах. в статье анализируется эффективность ритма и мелодии в исполнительском процессе.

Ключевые слова: *параллелизм, ирония, поэтический ритм, локаль, мелодия, художественность, рифма, жаргонизмы, жанр, композиция, четверостишие.*

Insonning tug'ilishi, yashashi, o'lishi bilan bog'liq holatlar marosimlar bilan tartibga solinishi, ya'ni shaxsning bir hayot bosqichidan, ikkinchi hayot bosqichiga o'tishi oilaviy turli marosimlar (bayramlar, to'ylar, kichik yig'inlar) bilan bog'langan, tasdiqlangan. Umuman olganda, marosimlardagi turli hayotiy chizgilar, dalillar, insoniy qarashlar sotsiologik jihatdan insonni jamoa (ya'ni jamiyat) qonun-qoidalari bilan tanishtirib, tarbiyalab, milliy maktab mezonlarini shakllantirsa, ilmiy nuqtayi nazardan esa, marosimlar xalq og'zaki ijodi namunalarining yashashi uchun vosita sifatida o'ziga xos qimmatga ega. Xalq og'zaki ijodi namunalarining paydo bo'lish tarixi, genetik xususiyati, lokal yoki nolokal mezonlari, dialekt qatlamlari marosim folklorida namoyon bo'ladi.

Marosim folklorining serqirraligi, dramaturgiyasi, badiiy-uslubiy bo'yoqdorligi, ularning ijrochilari,

ishtirokchilarining xilma-xilligi bilan o'lchanadi. Marosim ijodi millat madaniyatining o'ziga xos badiiy yodgorligi bo'libgina qolmay, kelajak hayot mezonlari, zamon va makon haqidagi xalqona o'y-kechinmalar barqarorligini ta'minlovchi izchil tizimdir. Inson hayotida uch marosim: "beshik to'y" marosimi (insonning dunyoga kelishi), "nikoh to'y" marosimi (shaxsning bir maqomdan, ikkinchisiga o'tishi), "o'lim" marosimi (mavjud dunyodan, boshqa dunyoga o'tishi) muhim funksional vazifalarni bajaradi. Ushbu marosimlarda ijro etiladigan og'zaki ijod namunalari esa shu vazifalarga moslashadi. Og'zaki ijod namunalarining asosini qo'shiqlar tashkil etganligi uchun, ularning o'rganilish darajasi ham shunchalik muhimdir. Ayniqsa, nikoh to'ylarida yosh-u qarini birdek hayajonga soladigan, bir on bo'lsada, o'z o'y-kechinmalariga bog'laydigan "yor-yor" qo'shiqlarining o'ziga xosligi sir emas.

Tadqiqotchilar R.Nosirov, A.Musaqulov, I.Haqqulov, M.Ro'ziyeva, M.Jo'rayev, M.Murodova, L.Xudoyqulova, M.Yokubbekovalar tomonidan xalq og'zaki ijodi namunalari turli xil aspektlarda o'rganilgan va "yor-yor" janri haqida ham ma'lum ma'noda ilmiy xulosalar berilgan.

"Yor-yor" janri, odatda, alohida olingan terma to'rtliklardan iborat bo'ladi, deb tasavvur qilinadi. Haqiqatdan ham, ushbu janrga mansub bo'lgan namunalarning aksariyat katta qismida shu xususiyat mavjud. Shunga ko'ra ularning ijro paytidagi o'rni anchayin erkin bo'ladi.

Oq ko'ylagim yengini,
So'kdin ona, yor-yor.
Oq sutingga rozi bo'l,
Ketdim ona, yor-yor. (3: 80)

Yoki:
Payg'ambarining qizini,
Kim ko'ribdi, yor-yor.
Ota-ona mehriga,
Kim to'yibdi, yor-yor. (2: 152)

Yuqoridagi kabi bandlar nisbatan erkinroq joylashadi. Kuzatishlarimizning ko'rsatishicha, ayrim bandlar bir-biri bilan mantiqan bog'lanib ketgan bo'ladi. Bunday hollarda ularning muayyan izchillikda kelishi, albatta, shart bo'lib qoladi.

Qora-qora qo'zilar,
Qo'yni boshlang, yor-yor.
Qalam qoshli yangalar,
O'lan boshlang, yor-yor.
Qiziqtirib aytasangiz,
Bizning bilan, yor-yor.
Yig'ilishib qudalar,
Tanga tashlar, yor-yor. (2:130)

Misralarda "o'lan aytmoq" mantiqiy markazi har ikki bandni o'zaro birlashtirib turadi. Muhimi, mazkur izchillik, ushbu ketma-ketlik mantiqiy ehtiyoj taqozosi bilan yuzaga kelganligi ochiq sezilib turadi.

Bandlarning ichki mantiqiy aloqadorligi tasvirdagi obyekt xususiyatlariga ham chambarchas bog'liqdir. Shunga ko'ra, bunday holatda o'zaro aloqador bo'lgan bandlar sirasi ikki-uch banddan yetti-sakkiz, hatto o'n-o'n ikki bandgacha davom etishi mumkin.

«Yor-yor»larning an'anaviy tarzidagi ko'rinishlaridan biri bevosita Xudoga bag'ishlovlardan boshlanadi. Xuddi shu yerda ierarxiyalik tarzda mantiqiy zanjir tuzila borishini kuzatish mumkin bo'ladi. Bu zanjirning asosiy halqalarini «Xudo – bismillo – Qur'on», «Xudo – payg'ambar – ummat» tarzida davom etadi.

Ikkinchi turkum «yor-yor»larda bir kompozitsion usulga birlashish tamoyili ustunlik qiladi. Ularga xos bo'lgan asosiy belgi, birinchi misrada olg'a surilgan badiiy niyatning keyingi baytlarda mantiqan davom ettirilishi bilan aloqador:

Yor-yor aytib kelaman,
Bilasizmi yor-yor,
Yor-yorimning qadriga,
Yetasizmi, yor-yor.

Keyingi bandlarning barchasi shu turkumga aloqadorlikning belgisi sifatida birinchi misraning takroridan boshlanadi.

Yor-yor aytib kelaman,
Yo'l beringlar, yor-yor.
O'lanchining piriman,
Qo'l beringlar, yor-yor. (2: 162)

Tavsif tipidagi holatlarda ham mana shunday rivojlanish ko'zga tashlanadi. Unda kelin yoki kuyovdagi muayyan ijobiy sifatlar (ba'zan yumoristik tasvirlar ham) uzluksizlik bilan tilga olinadi.

Bir ximchai kamarday,
Beli bordir, yor-yor.
Tol ximchai larzonday,
Bo'yi bordir, yor-yor.
O'n to'rt kunlik oydakin,
Ro'yi bordir, yor-yor. (2: 48)

Bunday tip yor-yorlarda mantiqiy aloqadorlik qofiya vositasida kompozitsion jihatdan ham yana bir marta mustahkamlab boriladi. Buning natijasida bandlar orasidagi mantiqiy izchillik juda kuchli tovush ta'minotiga ega bo'ladi.

Yor-yor to'rtliklari mantiqiy izchillik, mazmunan davomiylikka ega bo'lsa-da, ularning kompozitsion ko'rinishida alohidalik mavjud. Bu xususida Raxmatulla Nosirov o'zining ilmiy ishi va ilmiy maqolalarida alohida to'xtalib o'tgan. (3: 33-35)

Sepoyaga sut qo'ydim,
Achisin deb, yor-yor,
Qarindoshga qiz berdim,
Yolchisin deb, yor-yor.
Qarindoshim orzulab,
Quda bo'ldi, yor-yor,
Oxirida yomonlab,
Judo bo'ldi, yor-yor. (3: 33-35)

Yuqoridagi har ikki to'rtlik mazmun jihatdan bog'langan, mantiqiy izchillikka ega. Ya'ni, sut oqlik – baxt ramzi. Lekin uning achishi, yaxshilik emas. Yaxshi niyat bilan qarindoshga qiz bermoqlik, oqibatda esa qarindoshdan judolik yuzaga kelmoqda. Ikkala to'rtlikdagi mazmun-mohiyatning yoritilishiga ko'ra, ular alohida-alohida kompozitsion ko'rinishga ega.

Birinchi to'rtlik, tematik-psixologik parallelizm, ikkinchi to'rtlik esa, ritmik-sintaktik parallelizm.

Parallelizm xalq qo'shiqlarida juda keng qo'llanilib, baytlarda yagona poetik obraz yaratishga xizmat qiladi. (1: 447)

Yor-yor to'rtliklaridagi kompozitsiya o'rganilganda, to'rtlik bandlaridagi dastlabki ikki

misraning keyingi ikki misraga mantiqan bog'lanishi, aloqadorligi, yoxud zidligiga e'tibor berish lozim. Bu esa poetik obraz va poetik detal o'rtasidagi munosabatda aks etadi.

Yor-yorlaridagi an'anaviy motivlar mazmuniga ko'ra yor-yorlar matni ham bir necha guruhlariga bo'linadi. Bunday bo'linishlar yor-yorlarning kompozitsiyasini yoritishga imkoniyat tug'diradi. Yor-yor qo'shiqlaridagi asosiy motivlardan biri, kelin bo'lib o'zga xonadonga uzatilayotgan qizning ahvoriga achinish, ruhiy izzitirob ko'rinishlaridir.

Tog'da toychoq kishnaydi,

Ot bo'ldim deb, yor-yor.

Uyda kelin yig'laydi,

Yot bo'ldim deb yor-yor. (2: 150)

Ushbu to'rtlikda, ota-onasining uyidan ayrilib ketayotgan, begona xonadonga uzatilayotgan qiz ruhiyatiga xos ma'yuslik, izzitirob aks ettirilgan. Bu esa ruhiy parallelizm vositasida ifodalangan. To'rtlikning dastlabki misralaridagi mazmun, mohiyatan, qolgan misradagi mazmunga zid. Chunki toychoq, ot bo'lganidan quvonib kishnamoqda. Qiz esa yot bo'lib, o'zga uyga ketayotganidan og'ir ruhiy holatda. Ammo ikkala ko'rinishda ham bir hayotiy voqeelik mavjud. Ya'ni toychoq balog'atga yetganda ot bo'ladi, qizlar ham balog'atga yetganda, kelin bo'lib yangi hayotga qadam qo'yadi. Qolaversa, birinchi misradagi ijobiy holat, ikkinchi misradagi salbiy holat zararini mohiyatan chuqurroq ochishga va fikrning ta'sir kuchini oshirishga xizmat qiladi. Qo'shiqdagi parallelizm esa, birinchi baytga, ikkinchi baytdagi kutilmagan asos bilan bog'lanishni vujudga keltirmoqda. Yuzaki qaralganda ular bir-biriga bog'lanmagan. Lekin asosiy g'oyani ifodalash uchun mantiqiy bog'lanmoqda. Xalq og'zaki ijodi namunalari bunday ichki mantiqiy bog'lanishlar

juda ko'p uchraydi.

Yor-yor qo'shiqlarida bunday parallelizmlarning ko'p uchrashi uning o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etadi. Qo'shiqlarda parallelizm bir necha hollarda ko'rinadi: tabiat hodisalari va turmush detallari, umuman ko'zga ko'rinadigan narsalar bilan taqqoslab obrazlash, psixologik bog'lash orqali kishining ma'naviy holati qiyos qilinadi. Bunday obrazlash uchun, albatta, o'xshatish, sifatlash, mubolag'a, kinoya, metafora va metonimiyalar, allegoriya kabi badiiy vositalar yorqin tasavvurlash uchun qo'llaniladi. Tasviriy ifodalar bilan ko'chma ma'noda kelgan iboralar parallelizmlarni tashkil etadi. Bular orqali qo'shiqning ta'siriy kuchi oshadi.

Darchadagi qaychini,

Zang bosibdi, yor-yor.

Ketadigan singlimni,

G'am bosibdi, yor-yor. (5: 48)

Bu to'rtlikka xos parallelizm: zang bosgan qaychi va g'am bosgan kelin. Ruhiy parallelizm vositasida shakllangan baytlar, poetik detal va poetik obraz o'rtasidagi mantiqiy aloqadorlikka ega. Zang bosgan qaychi – poetik detali, g'am bosgan kelin obrazining ruhiy holatini ishonchliroq ifodalashga xizmat qilmoqda. Zang – qaychini yaroqsiz ahvolga keltiradi. Bu ko'rinib turgan tabiat hodisasidir. G'am esa insonni xarob qiladigan ichki ruhiy azob.

Ko'rinib turibdiki, insonning ichki his-tuyg'ularni oshkor etadigan "yor-yor" to'rtliklarida parallelizmning takrorlanmas ko'rinishlari mavjud. Nikoh to'yi marosimida shaxsning yangi maqomga erishishi bilan bog'liq urf-odatlar, irim-sirimlar, ruhiy kechinmalardagi konfliktlar, badiiy tasvirdagi soddaliklar aynan parallelizmlar orqali yanada mukammal ifoda kasb etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: O'zbekiston, 2002. 450-bet.
2. Gulyor. Farg'ona xalq qo'shiqlari. – T., 1967. 248-bet.
3. Jo'rayev M. Oy oldida bir yulduz. – T., 2000. 160-bet.
4. Nosirov R. O'zbek xalq qo'shiqlarining kompozitsiyasi haqida. O'zbek tili va adabiyoti. – T., 2001. O'sha muallif. Xalq qo'shiqlarining zanjirli kompozitsiyasi. O'zbek tili va adabiyoti, 2002.
5. To'xliyev B., Sheraliyev E., Aliqulova H. O'zbek xalq qo'shiqlari. Yor-yorlar. –T., 2009. 104-bet.